



## TA'LIM JARAYONIDA VARATIV O'QUV TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

*Kadirova G.X.*

*Professional ta'limni rivojlantirish instituti doktranti*

**Tayanch so'zlar:** o'quv topshiriqlari, darajalangan variativ o'quv topshiriqlari, muammoli vaziyatga asoslangan topshiriqlar, kasbiy vaziyatga asoslangan o'quv topshiriqlari, baholash mezonlari, kompetensiya.

**Ключевые слова:** учебные задания, классифицированные вариативные задания, задания, основанные на проблемной ситуации, учебные задания, основанные на профессиональной ситуации, критерии оценки, компетенции.

**Key words:** training tasks, classified variable tasks, tasks based on a problem situation, training tasks based on a professional situation, assessment criteria, competencies.

**Резюме:** Pedagogika va psixologiyada tafakkur topshiriqlarni bajarish jarayonida o'rganiladi. Topshiriqni bajarish - bu bir vaqtning o'zida jarayon va natijadir. Topshiriqni bajarish qo'yilgan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan uslubni izlashni, hamda maqsad orqali aniqlangan harakatni bajarishni o'z ichiga oladi. Yechimini izlash jarayonida inson analizni, sintezni, umumlashtirishni va boshqa intellektual ko'nikmalarni amalga oshiradi. Ushbu maqolada variativ o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'siri haqida so'z boradi.

**Резюме:** В педагогике и психологии мышление изучается в процессе выполнения заданий. Выполнение задания - это процесс и результат. Выполнение задания включает в себя поиск способа, необходимого для достижения поставленной цели, и выполнение определенных действий. В процессе поиска решений человек проводит анализ, синтез, обобщение и другие интеллектуальные навыки. В этой статье речь идет о том, как различные учебные задания и их использование влияют на эффективность обучения.

**Summary:** In pedagogy and psychology, thinking is studied in the process of completing tasks. Completing a task is a process and a result. Completing a task involves finding the method necessary to achieve the goal and performing certain actions. In the process of finding solutions, a person conducts analysis, synthesis, generalization and other intellectual skills. This article deals with how various learning tasks and their use affect the effectiveness of learning.

Bugungi kunda professional ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning intellektual-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'nikmalar bo'lajak o'rta bo'g'in kadrlarning noodatiy kasbiy vaziyatlarda ham samarali faoliyat olib borishga tayyorlash uchun xizmat qila oladi.



Umum qabul qilingan tushunchaga ko'ra, bilishga qandaydir aqliy mashqlarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz amalga oshirilganligi tahlil qilish yo'li bilan emas, balki oldindan tayyorlangan aniq ijodiy topshiriqlarni bir necha bor qaytarish yo'li bilan va samarali xatti-xarakatlarni amalga oshirish natijasida erishish mumkin.

Yechimning natijasi maqsadga erishish bo'lib, G.V.Suxodolskiyning [6] ta'kidlashicha har bir faoliyat algoritmlashuvchidir. Tadqiqotchi algoritmlarni uchta ko'rinishini ajratadi: mexanik, variativ va evristik.

K.N.Lunguning [4] fikricha topshiriqlar yechishning muvaffaqiyatligi topshiriqlar mazmuniga fikrlash usullari va komponentlari qanchalik darajada mos ekanligi bilan aniqlanadi.

R.I.Sunnatova fikrlash faoliyatida qaror qabul qilishning reproduktiv va mahsuldor xarakter tafovutlari ya'ni, topshiriqni hal etish mahsuldorligi sub'ektning fikrlash faoliyatida o'sishi, topshiriqni hal etish bo'yicha sub'ektning mustaqil rivojlanish imkoniyatlari bilan uzviy bog'liqlikda kechishini isbotlagan [5].

O'qitish vositasi professor-o'qituvchiga talabalarning biluv-amaliy faoliyatini boshqarishga yordam beradigan maxsus yaratilgan qo'llanmalar va turli xil xarakterdagi materiallardir.

Ta'lim oluvchilarda intellektual ko'nikmalar ko'p hollarda topshiriqni bajarish, ya'ni topshiriqning talab va shartlarini ajratish jarayonida rivojlanadi. Topshiriq sub'ekt tomonidan nafaqat tushunarli bo'lishi, balki uning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan bo'lishi kerak. [1]

Ta'lim oluvchi o'quv topshiriqlarni bajarib, uning asosida yotuvchi nafaqat intellektual ko'nikmalarni egallaydi, balki o'zlashtirilgan mantiqiy xarakatlarni yangi o'quv sharoitlarga o'tkaza oladi, fanlarning umumiy va maxsus tomonlarini topa oladi, ular orasida sabab-natijaviy, shartli, funksional va boshqa aloqalar o'rnatiladi. O'zining fikrini isbotlay va asoslab bera oladi, o'zlashtirilayotgan asoslar, xodisalar bo'yicha o'z nuqtai nazarini himoya qila oladi. Yangi tushunchalarni mavjud tushunchalar tizimiga kirita oladi.

Topshiriqlarni yechish nafaqat bilimlarni mustahkamlashni, amaliyotda ularni qo'llashni ta'minlaydi, balki aqliy faoliyatning tadqiqotchilik faoliyatini shakllantiradi, o'zlashtirilayotgan xodisalarga nisbatan yondashuv metodi bilan ham qurollantiradi.[1]

M.M Zinkovkina ta'lim muassasalarida ijodiy shaxsni tarbiyalash, tizimli bilimlar asosida yaxlit tasavvurni shakllantirishni ta'minlovchi nazoratning fanlararo shakli, interaktiv kurslar, fundamental, gumanitar va kasbiy fanlarning optimal birlashmasi, predmetli aloqadorlik asosida ularning bir-biriga kirib borishi orqali amalga oshirilishi lozimligini ta'kidlaydi[3]



Professional ta'lim tizimida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda asosiy masalalardan biri bo'lib, ularning tizimli fikrlashi, kongnitiv bilim va amaliy harakatlar mazmunini anglash va maqsadli g'oyalarni generatsiyalashga qobiliyatlikni shakllantirish hisoblanadi.

Kasbiy vaziyatlarga asoslangan darajali o'quv topshiriqlarni shakllantirishda muammoli ta'lim tamoyillaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Muammoli ta'lim qanday nomlanishidan qat'iy nazar, uning asosiy xususiyati - ta'lim oluvchining aqliy faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy izlanish, o'zi uchun yangi bilim, ko'nikma va malakalarni kashf etishga yo'llashdan iboratdir. Demak, muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo'li bilan egallanadigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisiga muammoli ta'lim deyiladi.[2]

Ma'lum ta'lim texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilganda kongnitiv bilimlarni ta'lim oluvchilarga uzatilishining bir necha turlari farqlanadi: tayyor bilimlarni ta'lim oluvchi ongiga singdirish, xotirada saqlash, saqlangan bilimlarning qayta tiklanishi, verbal, noverbal shaklda o'zlashtirilgan bilimlarni qayta ifodalash kabi bilish, anglash natijalarini aniqlash mumkin.

O'zlashtirishning reproduktiv va produktiv darajalariga erishish maqsadida ta'lim oluvchidan ijodiy-qaytar aloqani talab etuvchi ta'lim yondashuvlari ham mavjud bo'lib, bunda ta'lim oluvchilardan o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy harakatlarga ko'chirish, ma'lum natijalarni qo'lga kiritish, boyitish, o'zining mustaqil nuqtai nazariga ega bo'lish talab etiladi.

Muammoli vazifaning mazmuni ta'lim oluvchiga ma'lum bo'lgan masalani noma'lumi bilan ziddiyatlashuvidan tarkib topadi. Topilishi zarur bo'lgan noaniq masala izlanish, fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarishni ta'minlashi lozim.

Yuqorida keltirilgan muammoli-vaziyatli topshiriqlarni ishlab chiqish qoidalari tadqiqotimiz doirasida muammoli-vaziyatga asoslangan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Tadqiqotimiz doirasida murakkablik darajasi bilan farqlanuvchi o'quv topshiriqlari shakllantirildi. Ushbu topshiriqlarning darajalanishi ikkita asosiy vazifani bajaradi:

- a) o'quv jarayonini soddadan-murakkablikka tamoyili bo'yicha algoritmlaydi;
- b) ta'lim natijalari va o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini belgilashda asos vazifasini bajaradi.

Nazariy-amaliy bilimlarni qamrab olish xususiyatiga ko'ra mazkur o'quv topshiriqlarni beshta darajaga ajratildi:

- Modeling - modellashtirilgan o'quv topshiriqlari - kongnitiv bilimlar va boshlang'ich amaliy ko'nikmalar asosida vazifalar amalga oshirilishi;



- Coaching - kongnitiv-amaliy o'quv topshiriqlari nazariy bilimlar, o'zlashtirilgan murakkab bo'lmagan ko'nikmalar asosida topshiriqning bajarilishi;
- Scaffolding - algortmli-mustaqil o'quv topshiriqlari kongnitiv bilimlar, ma'lum darajada murakkablikka ega ko'nikmalar va mustaqil amaliy harakatlar asosida faoliyat olib borish;
- Activation - faol o'quv topshiriqlari ta'lim oluvchining kongnitiv bilimlari, kasbiy ko'nikmalari va mustaqil-innovatsion yondashuvi asosida belgilangan muammoga yechim topilishi yoki ma'lum kasbiy vaziyatni amalga oshirilishini talab etadi.
- Reluction - reflektiv-muvofiqlashtirilgan o'quv topshiriqlari bo'lib ta'lim oluvchining ma'lum topshiriqni bajarish jarayonida uni optimallashtirishi, qulaylashtirishi asosida amalga oshirishini taqozo etadi (1-jadval)

### 1-Jadval

#### Variativ o'quv topshiriqlari

O'quv topshiriq tipi	Topshiriq mazmuni
Modeling -Modellashtirilgan	O'quvchini ma'lum bir jarayonni nazariy izohlash, izchilligini ta'riflash, nus'halash, tayanch iboralar tuzish, jadval, test, savol tuzishga yo'naltirish
Coaching - Kongnitiv-amaliy	Ma'lum jarayonni nazariy-amaliy izohlash, algortm asosida harakatlar ketma-ketligini bajarish, o'quvchini jarayonni tahlil qilishga, nazorat ostida mustaqil harakatlanishga yo'naltirish
Scaffolding -Algortm-mustaqil	O'quvchini ma'lum jarayondagi amaliy harakatlarni notanish vaziyatlarda qo'llay olishga, variativ faoliyatga rag'batlantirish
Activation Mustaqil-innovatsion	Natijadan-maqсадga tamoyili asosida ma'lum talablarni belgilash, o'quvchining mustaqil-innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash
Reluction - optimal-muvofiqlashtirilgan	Ta'lim oluvchilarning belgilangan vazifani optimal variantlar asosida bajarishga natijaning asosiy mezon sifatida qaraladi

Modellashtirilgan o'quv topshiriqlarini ta'lim jarayonida foydalanishda o'quvchilar tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan harakatlar tartibi topshiriqda to'liq yoritib beriladi. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi jarayonni kuzatish, nus'halash, takrorlash, jamlash, tahrirlash mazmunida bo'lishi mumkin.

Kongnitiv-amaliy o'quv topshiriqlar o'quvchilarda kongnitiv bilimlar va psixomotr ko'nikmalarni birgalikda rivojlantirishga qaratiladi. Bu darajadagi topshiriqlarning asosiy vazifasi o'quvchilarning amaliy ta'limdagi harakatlar algoritmini belgilab, o'quvchilarni ma'lum ketma-ketlik, izchillik, tartib asosida topshiriq vazifalarini bajarishga yo'naltirishdan iborat.

Algortm-mustaqil topshiriqlar "Scaffolding" sifatida ta'riflanishining asosiy sabablari ularda topshiriq vazifalarni bajarish uchun algoritmlar qisqacha taklif etilganligi, ta'lim oluvchining ma'lum mehnat funksiyalarni mustaqil bajarishiga



asoslanganligi bilan belgilanadi. Bunda o'quvchilarning ma'lum kasbiy vaziyatlarni ma'lum ob'ektlarda o'rganib, alternativ ob'ektlarda qo'llay olishlari, ishlab chiqarish jarayonida ma'lum predmetlarning gomologlaridan foydalana olishlari muhim elementlar hisoblanadi.

Mustaqil-innovatsion topshiriqlar ma'lum darajadagi modellashtirish yoki algortmlashtirishga ega emasligi bilan tavsiflanadi. Bunda jarayon natijasi talablari topshiriqda aks etadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil jarayon algoritmini loyihalashtirishlari va talab darajasidagi natijani qo'lga kiritishlari talab etiladi. Ta'lim beruvchilar tomonidan namuna, model, shablon taklif etilishi mumkin.

Optimal-muvofiqashtirilgan topshiriqlarni bajarishda mavjud algortm yoki bajarilish texnologiyasi ta'lim oluvchi tomonidan belgilanadi. Bunda u mavjud variantlarni o'zaro yaxlitlashi, eng maqbul variantni tanlay olishi va uning optimalligini asoslay olishi ta'lim oluvchining yuqori darajad nazariy va amaliy bilimlarga egaligini ko'rsatuvchi omil sifatida baholanadi. Ta'lim beruvchining bu vaziyatda harakatlari o'quvchining o'zi bajargan faoliyatga nisbatan refleksiv xulosalay olishi va munosabat bildirishini rag'batlantirish va nazorat qilib borishdan iborat.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki Professional ta'lim tizimining asosiy missiyasi "Shaxsning butun hayoti davomida ta'lim olishini ta'minlash" ekanligiga asoslangan holda turli yosh, bilim va amaliy tajribaga ega bo'lgan o'quvchilarning samarali ta'lim olishini ta'minlashda variativ o'quv topshiriqlariga murojaat qilinishi zarur. Bu nafaqat o'qitish jarayoni sifatiga ijobiy ta'sir etishi, balki ta'lim oluvchilarning kasb o'rganishga bulgan turli darajadagi ehtiyojlarini ta'minlashga hizmat qiluvchi didaktik ta'minotning elementi vazifasini bajarishi mumkin.

#### АДАБИЁТЛАР:

1. Abduraxmanova Sh. Developing Students Intellectual Skills at Pedagogical Universities of Uzbekistan Republic based on Multimedia Technologies // Eastern European Scientific Journal - Germany, 2018. № 2. – P. 93 - 96. (13.00.00. № 1)
2. Asqarov I.B. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish bosqichlari. Kasb-hunar ta'limi. -T.Ilmij jurnal: Toshkent. 2016. №1
3. Зинковкина М.М. Креативное инженерное образование. Теория и инновационные креативные педагогические технологии: Монография. М.; МИГУ, 2003.-372 с.
4. Суннатов Р.И. Индивидуально-типологические особенности мыслительной деятельности // автореферат док. психол. н. – Ташкент, 2001. – 41 с.
5. Суходольский Г.В. Основы психологической теории деятельности / Г.В. Суходольский. Изд. 2-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2008. – С.73.
6. Yusupova A.P. Professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim asosida o'quv jarayonlarini tashkil etishning didaktik asoslari. // O'zbekistonda professional ta'lim ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal №3 2024 y.